

**“O‘zbekiston ilmiy-sinov va sifat nazorati markazi” davlat
muassasasining komplaens nazorati bo‘limi tomonidan 2023-yil uchun
UMUMIY HISOBOT**

**I. Tashkilotning Korrupsiyaga qarshi chora-tadbirlar dasturi bajarilgani
to‘g‘risida umumiy axborot**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 12-yanvardagi "Korrupsiyaga karshi kurashish ishlarining samaradorligini reyting baholash tizimini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida"gi PQ-81-son qarori ijrosini ta‘minlash maqsadida, qaror ilovasi bilan tasdiqlangan 29 ta indikator bo‘yicha “O‘zbekiston ilmiy-sinov va sifat nazorati markazi” davlat muassasasida indikatorlari ijrosi ta‘minlanib hujjatlashtirish ishlari olib borildi.

Yashirin iqtisodiyot va korrupsiyaga qarshi kurashish sohasini tartibga soluvchi qonun va normativ-huquqiy hujjatlar hamda O‘zbekiston “Texnik jihatdan tartibga solish” agentligining ichki normativ hujjatlari talablari bo‘yicha nazariy va amaliy bilimlari darajasini aniqlash, ularda korrupsiyaga qarshi murosasizlik ko‘nikmalarini oshirish maqsadida profilaktik suhbat o‘tkazish “O‘zbekiston ilmiy-sinov va sifat nazorati markazi” davlat muassasasining markazida: (*Sertifikatlashtirish idorasi rahbarlari, Buxgalteriya, Inson resurslarini rivojlantirish va boshqarish bo‘limi, Axborot tahlil bo‘limi, Sertifikatlashtirish idoralarini faoliyatini muvofiqlashtirish va rivojlantirish bo‘limi, Sinov laboratoriyalari faoliyatini muvofiqlashtirish va rivojlantirish bo‘limi, Moddiy ta‘minot va xo‘jalik bo‘limi, Tadbirkorlik sub’ektlariga amaliy yordam ko‘rsatuvchi bo‘lim, Oziq-ovqat va atir upa mahsulotlarini sertifikatlashtirish organi, Qurilish mahsulotlarini sertifikatlashtirish organi, Mashinasozlik va metall mahsulotlarini sertifikatlashtirish organi, 3-son mahsulotlarni sertifikatlashtirish organi, 3-son mahsulotlarni sertifikatlashtirish organi qoshidagi inspeksiya nazorati sho‘basi, Elektrotexnik mahsulotlarini sertifikatlash organi, Yengil sanoat mahsulotlarini sertifikatlashtirish organi, Kimyo mahsulotlarini sertifikatlashtirish organi, Oziq-ovqat mahsulotlarini sinash laboratoriysi (Toshkent), Sinov laboratoriyalari majmuasi - 6 ta laboratoriyalari va “Quality and Safety-Testing”sinov laboratoriylar majmuasi) – jami 19 ta. Shuningdek “O‘zbekiston ilmiy-sinov va sifat nazorati markazi” davlat muassasasining hududiy filiallarida: (*Andijon, Namangan, Farg‘ona, Qo‘qon va Jizzax*) – jami 5 ta.*

“O‘zTest” DMning xodimlari tomonidan namunalarni tanlash jarayonida “body camera”dan olinayotgan video materiallari muntazam ravishda nazorat qilib borilmoqda.

“O‘zbekiston ilmiy-sinov va sifat nazorati markazi” Davlat muassasasining komplaens nazorati bo‘limida joriy yilning yanvar oyida “CERT international” MChJ (ISO 37001:2016 “Korrupsiyaga qarshi kurashish pora olish va berish bilan kurashish menejmenti tizimi” tomonidan birinchi kuzatuv auditining 2-bosqichi bo‘lib o‘tishi

munosabati bilan katta tayyorgarlik ishlari olib borildi. Mazkur auditning 2-bosqichi joriy yilning 4-5 aprel kunlari “CERT international” MChJ (ISO 37001:2016 “Korrupsiyaga qarshi kurashish pora olish va berish bilan kurashish menejmenti tizimi” tomonidan bo‘lib o‘tdi.

O‘tgan audit natijalariga ko‘ra komplaens nazorati bo‘limining bir nechta kamchiliklari borligi aniqlandi. Ushbu kamchiliklar komplaens nazorati bo‘limi xodimlari tomonidan qisqa vaqt ichida bartaraf etildi.

Jumladan:

- 2023, 2024 va 2025-yillar uchun ichki audit rejasi tuzib chiqildi;
- 2023-yil uchun tuzilgan korrupsiyaga qarshi kurashish maqsadlaridagi kamchiliklar bartaraf etildi.

Hisobotlar tayyorlashdagi kamchiliklar to‘g‘irlandi va ma’lumotlar elektron tarzda “CERT international” MChJ auditorlarga yetkazib berildi.

Auditor tomonidan bartaraf etilgan kamchiliklar o‘rganib chiqilib audit muvaffaqiyatlili yakunlangani va muassasa ISO 37001:2016 “Korrupsiyaga qarshi kurashish pora olish va berish bilan kurashish menejmenti tizimi” standartiga javob berishi to‘g‘risida xulosa berdi.

O‘zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligi bosh direktorining 2023-yil 10-maydag‘i 8-son buyrug‘i ijrosini ta’minlash maqsadida “O‘zbekiston ilmiy-sinov va sifat nazorati markazi” Davlat muassasasi komplaens nazorati bo‘limi tomonidan Monopoliyaga qarshi komplaens tizimini tashkil etish bo‘yicha “O‘zbekiston ilmiy-sinov va sifat nazorati markazi” Davlat muassasasi direktorining 2023-yil 19-maydag‘i 51-son buyrug‘ini ilovalari bilan ishlab chiqildi va imzolandi.

“O‘zbekiston ilmiy-sinov va sifat nazorati markazi” Davlat muassasasi komplaens nazorati bo‘limi, Inson resusrslarini rivojlantirish va boshqarish bo‘limi va Axborot kommunikatsiya texnologiyalari bo‘limi bilan birgalikda O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi, Oliy sudda, Din ishlari bo‘yicha qo‘mitasi tomonidan ekstremizm va terrorizm g‘oyalari bilan yog‘rilgan deb topilgan saytlar, ijtimoiy tarmoqlar, O‘zbekiston Respublikasi hududiga olib kirish, tayyorlash, tarqatish va namoyish etish taqiqlangan boshqa materiallar ro‘yxati va korrupsiyaga qarshi kurashish sohasini tartibga soluvchi O‘zbekiston Respublikasining qonun va normativ-huquqiy hujjatlari bilan “O‘zTest” DMda faoliyat yurituvchi barcha xodimlar bilan bu yo‘nalishda profilaktik suhbatlar o‘tkazildi.

Komplaens nazorati bo‘limining yillik rejasiga asosan mashinasozlik va metall mahsulotlarini sertifikatlash idorasi, kimyo sanoat mahsulotlari serifikatlash idorasi, elektrotexnika mahsulotlarini sertifikatlash idorasida korrupsiyani oldini olish maqsadida targ‘ibot-tashfiqot va tushuntirish ishlari olib borildi.

Shuningdek xodimlarda mas’uliyatni oshirish maqsadida joriy yilning 20-dekabr kuni muassasaning barcha xodimlaridan korrupsiyaga yo‘l qo‘ymaslik to‘g‘risida tixlatlar olindi.

II. Siyosat va tartib-taomillar

"O'zbekiston ilmiy-sinov va sifat nazorati markazi" davlat muassasasi tomonidan korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tuzilmalarini samarali joriy etish bo'yicha qabul qilingan ichki me'yoriy hujjatlar:

- "O'zbekiston ilmiy-sinov va sifat nazorati markazi" DMning Korrupsiyaga qarshi siyosatga muvofiqligi to'g'risidagi deklaratsiya va manfaatlar to'qnashuvi to'g'risidagi nizomi;
- "O'zbekiston ilmiy-sinov va sifat nazorati markazi" DMda Sovg'alar almashinuvi va ishbilarmonlik mehmono'stligi to'g'risidagi nizom;
- "O'zbekiston ilmiy-sinov va sifat nazorati markazi" DMning Moliyaviy nazorati bo'yicha yo'riqnomasi;
- "O'zbekiston ilmiy-sinov va sifat nazorati markazi" DMning kontragentlarini tekshirish bo'yicha yo'riqnomasi;
- "O'zbekiston ilmiy-sinov va sifat nazorati markazi" DMda Xizmat tekshiruvlarini o'tkazish to'g'risidagi nizom;
- "O'zbekiston ilmiy-sinov va sifat nazorati markazi" DMda Odob-axloq qoidalari va xizmat ko'rsatish qoidalari;
- "O'zbekiston ilmiy-sinov va sifat nazorati markazi" DMda Korrupsiya xavfini aniqlash va baxolash metodologiyasi;
- "O'zbekiston ilmiy-sinov va sifat nazorati markazi" DMda Korrupsiya xavfini aniqlash va baxolash metodologiyasi;
- "O'zbekiston ilmiy-sinov va sifat nazorati markazi" DMda Korrupsiya qarshi kurashish yuzasidan ichki audit tekshiuvini boshqarish protsedurasi.
- 2021-yil yanvar - sentyabr oylari ichida "O'zbekiston ilmiy-sinov va sifat nazorati markazi" DMda Korrupsiyaga qarshi menejment tizimlari ishlashi yuzasidan bayonnomasi:
 - korrupsiyaga qarshi maqsadli harakatlar dasturi;
 - "O'zbekiston ilmiy-sinov va sifat nazorati markazi" DMning Korrupsiyaga qarshi kurashish siyosati (*O'zbek tilida*);
 - "O'zbekiston ilmiy-sinov va sifat nazorati markazi" DMning Korrupsiyaga qarshi kurashish siyosati (*Rus tilida*);
 - shtat jadvalining yangi tahririni tasdiqlash haqida buyruq. KQKvaKN bo'limi tashkit topdi, 3 shtat lavozimdan iborat;
 - "O'zTest" DM KQKvaKN bo'limining nizomi, KQKvaKN bo'limi boshlig'ining lavozim yo'riqnomasi va KQKvaKN bo'limi mutaxassisining lavozim yo'riqnomasi;
 - monopoliyaga qarshi komplaens tizimini tashkil etish to'g'risida;
 - korrupsiya holatlari haqida xabar berish mexanizmi, xabar bergan xodimlarni rag'batlantirish to'g'risida;

- "O'zTest" DMtizimida korrupsiyaga qarshi kurashish faolityatini samarali tashkil etishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida Muassasada "Body camera" dan foydalanish to'g'risida.

III. Xavf-xatarlarni baholash

O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2022-yil 31-avgustda 3383 ro'yxat raqami bilan ro'yxatdan o'tkazilgan O'zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi hamda O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining qaroriga muvofiq ishlab chiqilgan va "O'zbekiston ilmiy siov va sifat nazorati markazi" davlat muassasasi faoliyatida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash va baholash uchun xavf-xatarlar haritasi 2024-yil uchun ishlab chiqilmoqda.

IV. Amalga oshiriladigan korrupsiyaga qarshi kurashish tartib-taomillar Manfaatlar to'qnashuvini tartibga solish

"O'zbekiston ilmiy-sinov va sifat nazorati markazi" Davlat muassasasi tomonidan qabul qilingan manfaatlar to'qnashuvini boshqarish nizomida belilab qo'yilgan tartib bo'yicha deklaratsiyalar to'ldirildi. Hozirgi kunda (*Jami shtatlar soni: 552 ta, shundan 25 tasi vakant, jami xodimlar soni: 509 ta, shundan texnik xodimlar soni 36 ta va bola parvarishida 18 ta. Jami deklaratsiyani to'ldirgan xodimlar soni: 484 ta.*) muassasada 484 nafar (95%) markaz hamda hududiy filliallarda faoliyat yuritayotgan bo'lib barcha mutaxassislar manfaatlar to'qnashuvining yillik deklaratsiyasini to'ldirilishi ta'minlandi.

Korrupsiyaga qarshi qoidalarni "O'zTest" DM shartnomalariga kiritilishi.

"O'zbekiston ilmiy-sinov va sifat nazorati markazi" Davlat muassasasi xodimlar o'rtasida tuzilgan mehnat shartnomalariga korrupsiyaga oid bandlarga qo'shimchalar kiritildi. Hozirgi vaqtida (100%) xodimlarning mehnat shartnomalariga kiritilgan qo'shimchalar bilan tanishtirish ta'minlandi. Shuningdek, bundan keyin ishga qabul qilinadigan xodimlar bilan tuziladigan mehnat shartnomalariga korrupsiyaga oid bandlar kiritildi.

Kontragentlarni tekshirish.

"O'zbekiston ilmiy-sinov va sifat nazorati markazi" Davlat muassasasi faoliyatida kontragentlarni tekshirishga oid yo'riqnomasiga asosan tekshirilmoqda. Hisobot davrida "O'zbekiston ilmiy-sinov va sifat nazorati markazi" davlat muassasasida 17 ta kontragentlar bilan to'g'ridan to'g'ri tuzilgan shartnomalar tekshirilgan.

Ishga nomzodlarni tekshirish.

O'zbekiston Respublikasi prezidentining 2021-yil 6-iyuldag'i "Korrupsiyaga qarshi kurashish faolityatini samarali tashkil etishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-5177-son qarorini ijrosini ta'minlash maqsadida, "O'zbekiston ilmiy-sinov va sifat nazorati markazi" davlat muassasasiga ishga qabul qilinayotgan

nomzodlarni tekshirish bo'yicha yo'riqnomaga asosan ishga qabul qilinayotgan nomzodlar muntazam tekshirilib kelinmoqda.

V. Ta'lif va kommunikatsiya

O'zbekiston texnik jixatdan tartibga solish agentligi bosh direktorining 2022-yil 4-martdagи 01/564-son xatiga asosan, O'zbekiston texnik jixatdan tartibga solish agentligi va uning tizim tashkilotlarida korrupsiyaviy xavf-xatarlar xaritasi va korrupsiya xavf-xatarga eng ko'p moyil bo'lgan lavozimlar ro'yxati shakillantirildi hamda Agentlik bosh direktori tomonidan korrupsiya xavf-xatarlari yuqori darajadagi lavozimlar uchun o'qitish dasturi tasdiqlanib "O'zbekiston ilmiy-sinov va sifat nazorati markazi" davlat muassasasi O'zbekiston Standartlar instituti bilan mazkur o'qitish dasturiga (*"O'z DSt ISO 37001:2019 pora olish-berish bilan kurashish menijmenti tizimlari. Foydalanish bo'yicha talab va qo'llanma" yo'nalishi bo'yicha malaka oshirish*) ko'ra muassasaning 419 ta xodimini o'qitish yuzasidan shartnoma imzolanib va ikki o'quv guruhi ro'yxati shakillantirildi (*1-o'quv guruhi uchun o'qish joriy yilning 25, 26 va 27-aprel kunlarida onlayn o'qitilishi va 2-o'quv guruhi uchun o'qish joriy yilning 10, 11 va 12-may kunlarida onlayn o'qitilishi O'zbekiston Standartlar instituti o'qituvchilari tomonidan amalga oshirilildi*) mashg'ulotlar o'tkazildi.

Yuqorida bayon etilganlarga asosan mazkur guruhlarni o'quv saviyasini tekshirish va ular tomonidan olingen bilimlarini mustaxkamlash maqsadida, muassasaning KQKvaKN Bo'limi tomonidan dars mashg'ulotlarida o'tilgan maruzalar bo'yicha 50 ta test savollari tayyorlandi va muassasaning Axborot kommunikatsiya texnologiyalari bo'limi xodimlari bilan test sinovlarini o'tkazildi.

VI. Korrupsiyaviy xatti-xarakatlar va huquqbazarliklar to'risidagi xabarlar

2023-yil davomida, "O'zbekiston ilmiy-sinov va sifat nazorati markazi" davlat muassasasining aloqa kanallariga korrupsiyaga oid xabarlar va korrupsiyaviy harakat deb hisoblangan holatlar bo'yicha xabarlar kelib tushmagan.

VII. Monitoring va nazorat

"O'zbekiston ilmiy-sinov va sifat nazorati markazi" davlat muassasasida hisobot davrida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining joriy etilganligi va uning qonunchilik talablari, shu jumladan, xalqaro standartlar talablariga muvofiqligi bo'lim va sektorlarda monitoring qilindi.

VIII. Aniqlangan qoidabuzarliklar va ularga ta'sir choralar

"O'zbekiston ilmiy-sinov va sifat nazorati markazi" davlat muassasasida ichki mehnat qoidalari va qonun talablarning buzilganligi to'g'risida markazda va hududiy filiallarida hisobot davrida 67 ta xolat aniqlandi. Qoidabuzar xodimlarga nisbatan "O'zbekiston ilmiy-sinov va sifat nazorati markazi" davlat muassasasi direktorining buyrug'lari bilan intizomiy jazo choralar qo'llanildi.

IX. Xulosalar

Hisobot davrida O‘zbekiston texnik jixatdan tartibga solish agentligi bosh direktorining 2022-yil 4-martdagi 01/564-son xatiga asosan, O‘zbekiston texnik jixatdan tartibga solish agentligi va uning tizim tashkilotlarida korrupsiyaviy xavf-xatarlar xaritasi va korrupsiya xavf-xatarga eng ko‘p moyil bo‘lgan lavozimlar ro‘yxati shakillantirildi hamda Agentlik bosh direktori tomonidan korrupsiya xavf-xatarlari yuqori darajadagi lavozimlar uchun o‘qitish dasturi tasdiqlanib “O‘zbekiston ilmiy-sinov va sifat nazorati markazi” davlat muassasasi tomonidan (*“O‘z DSt ISO 37001:2019 pora olish-berish bilan kurashish menijmenti tizimlari. Foydalanish bo‘yicha talab va qo‘llanma” yo‘nalishi bo‘yicha malaka oshirish*) ko‘ra muassasaning 419 ta xodimini o‘qitildi. Prizident qarorlarida takidlab o‘tilganidek 100% xodimlarini o‘qitilishi kerakligi topshirig‘ini bajarish maqsadida 2024-yil davomida muassasaning qolgan xodimlarini ham mazkur yo‘nalish bo‘yicha o‘qitishni rejalashtirilmoqda.

X. Korrupsiyaga qarshi kurash tizimini yanada rivojlantirish bo‘yicha takliflar va tadbirlar rejasi

O‘zbekiston Respublikasining qonun va normativ-huquqiy hujjatlari hamda O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligidagi belgilangan jazo turlari, ichki odob-axloq qoidalari, o‘rnatalgan ish tartibi va boshqa normativ-huquqiy hujjallarni yetkazish, shuningdek O‘zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligining ichki normativ hujjatlari talablari bo‘yicha nazariy va amaliy bilimlari darajasini aniqlash, ularda korrupsiyaga qarshi murosasizlik ko‘nikmalarini oshirish maqsadida 2024-yilning birinchi choragida “O‘zbekiston ilmiy-sinov va sifat nazorati markazi” davlat muassasasining Xorazm va Qoraqalpog‘iston hududiy filiallariga tashrif buyurilishi ko‘zda tutilgan.

**“O‘zTest” DM komplaens nazorati
bo‘limi boshlig‘i**


R. Yunusov